ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 10.01.2026 · Accepted: 20.03.2026 · Published: 31.03.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/bkgkmb20

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 1(2), 2026
www.jnculture.uz

Maqom xonandaligida ijrochilik xususiyatlari va an’anaviy asoslar

(Performance Features and Traditional Foundations of Maqom Vocal Art)

Farxod Davletov

Department of Vocal and Instrumental Performance,
The Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: sevdiyor_7444@mail.ru

Anotatsiya

Ushbu maqolada maqom xonandaligining tarixiy shakllanish jarayoni, nazariy asoslari hamda o‘ziga xos ijrochilik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada maqom san’atining mumtoz she’riyat bilan uzviy bog‘liqligi, matn va musiqa uyg‘unligi, shuningdek, ustoz-shogird an’analarining shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni keng yoritiladi. Maqola davomida maqom ijrochiligida ovoz imkoniyatlari, nafasni boshqarish, intonatsion aniqlik, melizmatik bezaklar hamda ritmik erkinlik kabi muhim omillar alohida e’tibor markazida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqom xonandaligining hududiy ijrochilik maktablari, ularning o‘ziga xos uslubiy jihatlari va talqin farqlari tahlil qilinadi. Maqom ijrosida badiiy ifoda, dramatik rivoj va individual talqinning ahamiyati ham ochib beriladi. Maqola yozilishi natijasida maqom xonandaligining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, uni asrab-avaylash, ilmiy o‘rganish va yosh avlodga yetkazish masalalari yuzasidan asosli xulosalar beriladi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda maqom xonandaligining ijrochilik xususiyatlari tizimli ravishda yoritilib, uning an’anaviy va zamonaviy jihatlari o‘zaro bog‘liqlikda kompleks tarzda tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: maqom, xonandalik, shashmaqom, professional musiqa, ijrochilik, an’analar.

Abstract

This article examines the historical formation of maqom vocal performance, its theoretical foundations, and its distinctive performing characteristics. Particular attention is given to the close relationship between maqom art and classical poetry, the synthesis of text and music, as well as the role of the master–apprentice tradition in the development and transmission of this musical practice. The study highlights key performance aspects such as vocal capabilities, breath control, intonational accuracy, melismatic ornamentation, and rhythmic flexibility. Furthermore, regional schools of maqom vocal performance are analyzed, focusing on their stylistic features and interpretative differences. The article also explores the importance of

artistic expression, dramatic development, and individual interpretation in maqom performance. As a result of the research, contemporary trends in the development of maqom vocal art are identified, along with substantiated conclusions regarding its preservation, academic study, and transmission to younger generations. The scientific novelty of the study lies in the systematic analysis of performance characteristics and the comprehensive examination of the interrelation between traditional and modern aspects of maqom vocal art.

Keywords: maqom, vocal performance, shashmaqom, professional music, performance practice, traditions.

Аннотация

В данной статье рассматриваются исторические процессы формирования макамного вокального исполнительства, его теоретические основы, а также специфические исполнительские особенности. Особое внимание уделяется тесной взаимосвязи искусства макама с классической поэзией, синтезу текста и музыки, а также роли традиции «устоз–шогирд» в становлении и развитии данного вида искусства. В статье анализируются такие важные аспекты исполнительства, как вокальные возможности, управление дыханием, интонационная точность, мелизматические украшения и ритмическая свобода. Кроме того, рассматриваются региональные исполнительские школы макамного пения, их стилистические особенности и различия в интерпретации. Раскрывается значение художественной выразительности, драматургического развития и индивидуальной трактовки в процессе исполнения макама. В результате исследования определены современные тенденции развития макамного вокального искусства, а также обоснованы вопросы его сохранения, научного изучения и передачи молодому поколению. Научная новизна работы заключается в системном анализе исполнительских особенностей макамного пения и комплексном рассмотрении взаимосвязи его традиционных и современных аспектов.

Ключевые слова: маком, вокальное исполнительство, шашмаком, профессиональная музыка, исполнительство, традиции.

Maqom Markaziy Osiyo xalqlarining ko‘p asrlik professional musiqa merosi sifatida alohida o‘rin egallaydi. U o‘zining murakkab nazariy tizimi, mukammal ijrochilik an’analari hamda musiqa va she’riyat uyg‘unligiga asoslanganligi bilan

ajralib turadi. O‘zbek mumtoz musiqa madaniyatida maqom xonandaligi ushbu san’atning yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllangan.

Maqom xonandaligi — bu nafaqat vokal ijrochilik turi, balki murakkab badiiy tafakkur mahsuli bo‘lib, unda kuy rivoji, matn talqini va ijro texnikasi o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi [3. b.284]. Xonanda maqomni ijro etishda nafaqat ohangni yetkazadi, balki undagi falsafiy va estetik mazmunni ham ochib beradi. Hozirgi davrda maqom san’atining qayta tiklanishi, uni o‘rganish va rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor ortib borayotgani mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Shu jihatdan maqom xonandaligining ijrochilik xususiyatlarini tizimli ravishda o‘rganish musiqashunoslik fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda maqom san'atini o‘rganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, o‘zbek “Shashmaqomi” nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qo‘shiqlarining magnit lentalarga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqea bo‘ldi [5. b.7]. Maqom san’ati Sharq mumtoz musiqa madaniyatining ajralmas qismi sifatida asrlar davomida shakllangan murakkab tizimdir. Uning ildizlari qadimgi musiqa an’analariga borib taqaladi va u vaqt o‘tishi bilan mukammallashib, yuqori darajadagi professional san’atga aylangan. Maqom tizimining eng mukammal shakllaridan biri sifatida Shashmaqom e’tirof etiladi. Ushbu tizim oltita asosiy maqomdan iborat bo‘lib, (Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq) har biri o‘ziga xos lad, usul va shakliy rivojga ega. Shashmaqom nafaqat musiqa, balki vokal ijrochilik san’atining ham eng yuqori namunasi hisoblanadi.

Maqom xonandaligi tarixan ustoz-shogird an’analari asosida rivojlangan bo‘lib, mazkur an’ana ijrochiligining shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. XX asr boshlarida maqom san’atini ilmiy jihatdan o‘rganish va notaga tushirish ishlari yangi bosqichga ko‘tarildi [2. b.48]. Xususan, Viktor Uspenskiy tomonidan 1923-yilda Buxoroda usta hofizlar — Ota Jalol Nosirov va Ota G‘iyos

Abdug‘aniylardan Shashmaqom namunalarini yozib olish amalga oshirildi. Ushbu materiallar asosida u 1924-yilda Moskvada “Shest muzykalnix poem” (“Olti musiqiy poema”) nomi bilan nashr ettirdi. Keyingi davrda Yunus Rajabiy tomonidan maqom namunalarini to‘plash, ularni mukammal notaga olish va tizimlashtirish ishlari amalga oshirildi. U maqom merosini kengaytirish va ilmiy asosda o‘rganishga katta hissa qo‘shib, mavjud yozuvlarni takomillashtirdi hamda ijrochilik an’analarini yanada rivojlantirdi.

Yunus Rajabiy hofizlik bobida ham noyob iste’dod qirralarini namoyon etdi. U huzurli dard, betakror ovoz tarovati bilan ijro etgan “Ushshoq”, “Ko‘cha bog‘i”, “Girya”, “Gulyor-Shahnoz”, “Bayot”, “Dugoh-Husayn”, “Chorgoh”, “Qalandariy” kabi mumtoz ashula yo‘llari xalqimiz musiqa xazinasidan munosib o‘rin olgan [1. b.145].

Tarixiy manbalarga ko‘ra, maqom ijrochiligi saroy va xalq muhitida parallel ravishda rivojlangan. Bu esa uning turli ijrochilik uslublari va maktablarining shakllanishiga olib kelgan. Maqom xonandaligi yuqori darajadagi professional tayyorgarlikni talab etadigan murakkab ijrochilik san’atidir. [4. b.56] Unda ovoz imkoniyatlari, nafasni boshqarish, intonatsion aniqlik va badiiy talqin muhim ahamiyat kasb etadi. Xonandadan keng diapazonli ovoz, barqaror nafas nazorati hamda ohangni nozik farqlash qobiliyati talab etiladi. Maqom ijrosida tovushlarning asta-sekin rivojlanishi, ularning mantiqiy bog‘liqligi va ichki dramatizmi muhim o‘rin tutadi. Ijrochilikning asosiy belgilaridan biri melizmatik bezaklarning keng qo‘llanishidadir. Bu bezaklar orqali kuy yanada boyitiladi va uning ifodaviyligi oshiriladi. Shu bilan birga, har bir bezak ma’lum qonuniyatlarga asoslanadi. Maqom ijrosida ritmik erkinlik ham muhim ahamiyatga ega. Ijrochi usul doirasida erkin harakat qilib, kuyga individual talqin beradi. Biroq bu erkinlik qat’iy tizim doirasida amalga oshiriladi, ya’ni maqomning ichki qonuniyatlari buzilmaydi. Maqom xonandaligining muhim xususiyatlaridan biri uning mumtoz she’riyat bilan uzviy bog‘liqligidir. Maqom asarlari asosan g‘azal, ruboiy va boshqa she’riy shakllar

asosida yaratilgan. She’r matni va musiqa o‘rtasidagi uyg‘unlik maqom ijrosining badiiy ta’sirchanligini belgilaydi. Xonanda matn mazmunini chuqur anglab, uni musiqa orqali ifodalashi lozim. Shu sababli maqom xonandasi nafaqat musiqiy, balki adabiy tayyorgarlikka ham ega bo‘lishi zarur.

Matn va kuy o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash jarayonida urg‘u, talaffuz va intonatsiya muhim rol o‘ynaydi. Bu esa ijrochidan yuqori darajadagi mahorat talab qiladi. O‘zbek maqom xonandaligida bir nechta ijrochilik maktablari shakllangan bo‘lib, ular o‘ziga xos uslubiy xususiyatlarga ega. Jumladan, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari nafislik, lirizm va yumshoqlik bilan ajralib turadi. Bu yo‘nalishda ovozning mayinligi va ifodaning nozikligi ustunlik qiladi. Xorazm maqomlari esa jo‘shqinlik, kuchli ritm va dinamik ijro bilan tavsiflanadi. Bu maktabda ijro yanada ochiq va ta’sirchan shaklda namoyon bo‘ladi. Har bir ijrochilik maktabi o‘zining bezaklari, intonatsion xususiyatlari va talqin uslublari bilan ajralib turadi. Bu esa maqom san’atining boy va rang-barang tizim ekanligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda maqom san’atiga bo‘lgan e’tibor sezilarli darajada ortib bormoqda. Uni saqlash, o‘rganish va targ‘ib qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Maqom san’atining UNESCO tomonidan nomoddiy madaniy meros sifatida e’tirof etilishi uning xalqaro miqyosdagi ahamiyatini yana-da oshirdi. Bu esa maqom xonandaligining jahon miqyosida tanilishiga xizmat qilmoqda. Zamonaviy sharoitda maqom xonandaligini rivojlantirishda yosh ijrochilarni tayyorlash, an’anaviy ijro uslublarini saqlab qolish va ularni zamonaviy talqin bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Maqom xonandaligi Markaziy Osiyo xalqlari, xususan o‘zbek xalqining ko‘p asrlik musiqiy tafakkuri va badiiy dunyoqarashining mahsuli sifatida shakllangan murakkab va mukammal san’at tizimidir. Unda musiqa, she’riyat va ijrochilik mahorati o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lib, bu jarayon maqomni oddiy ijro shaklidan yuksak badiiy hodisa darajasiga ko‘taradi.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, maqom xonandaligi o‘zining ijrochilik xususiyatlari bilan boshqa vokal san’at turlaridan keskin farq qiladi. Xususan, unda melizmatik bezaklarning keng qo‘llanishi, ritmik erkinlikning mavjudligi hamda improvizatsion elementlarning muhim o‘rin tutishi ijroning murakkabligini yanada oshiradi. Shu bilan birga, ijro jarayonida qat’iy tizim va an’anaviy qonuniyatlarga amal qilinishi maqom san’atining barqarorligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, maqom xonandaligi o‘zining murakkab tuzilishi, chuqur mazmuni va boy an’analari bilan musiqashunoslik fanining muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Ushbu san’at turi asrlar davomida shakllanib, takomillashib kelgan bo‘lib, unda musiqa, she’riyat va ijrochilik mahorati uzviy uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Maqolaning natijalari shuni ko‘rsatdiki, maqom xonandaligi o‘ziga xos ijrochilik xususiyatlari, jumladan, melizmatik bezaklarning keng qo‘llanishi, ritmik erkinlik, intonatsion aniqlik va improvizatsion elementlar bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, mazkur ijro jarayoni qat’iy an’anaviy qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi, bu esa uning barqarorligi va badiiy mukammalligini ta’minlaydi.

Shuningdek, maqom xonandaligining mumtoz she’riyat bilan uzviy bog‘liqligi uning mazmuniy chuqurligini yanada boyitadi. Hududiy ijrochilik maktablarining mavjudligi esa ushbu san’at turining rang-barangligi va rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bugungi kunda maqom san’atini asrab-avaylash, uni ilmiy asosda o‘rganish va yosh avlodga yetkazish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bois maqom xonandaligi bo‘yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, ularni zamonaviy yondashuvlar bilan boyitish hamda amaliyot bilan uyg‘unlashtirish muhim ilmiy va madaniy ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohimov O. Maqom asoslari. — Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023.
2. Ibrohimov O. Maqomlar tarixi va nazariyasi. — Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023.

3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10-jild: Sharq — Qizilqum. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
4. Jalilov A. Maqom yakka xonandaligi. — Toshkent: Bookmany print, 2025.

References

1. Ibrohimov, O. *Maqom asoslari* [Foundations of Maqom]. Tashkent: Donishmand ziyosi, 2023. (in Uzbek)
2. Ibrohimov, O. *Maqomlar tarixi va nazariyasi* [History and Theory of Maqoms]. Tashkent: Donishmand ziyosi, 2023. (in Uzbek)
3. *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi*. Vol. 10: *Sharq — Qizilqum* [National Encyclopedia of Uzbekistan. Vol. 10: East — Kyzylkum]. Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005. (in Uzbek)
4. Jalilov, A. *Maqom yakka xonandaligi* [Solo Maqom Singing]. Tashkent: Bookmany Print, 2025. (in Uzbek)